

F₂ dagi ajralishning statistik xarakteri.

Erkinlik darajasi har xil bo‘lgan holatlarda χ^2 ning qiymatini ko‘rsatuvchi Fisher jadvali

| Erkinlik darajasi- ning soni (n ¹) | Ehtimollik (R) | | | | | | |
|---|----------------|--------|--------|-------|--------|--------|--------|
| | 0,99 | 0,95 | 0,80 | 0,50 | 0,20 | 0,05 | 0,01 |
| 1 | 0,000157 | 0,0393 | 0,0642 | 0,455 | 1,642 | 3,841 | 6,635 |
| 2 | 0,101 | 0,103 | 0,446 | 1,386 | 3,219 | 5,991 | 9,210 |
| 3 | 0,115 | 0,352 | 1,005 | 2,366 | 4,642 | 7,815 | 11,341 |
| 4 | 0,297 | 0,711 | 1,649 | 3,357 | 5,989 | 9,488 | 13,277 |
| 5 | 0,554 | 1,145 | 2,343 | 4,351 | 7,289 | 11,070 | 15,086 |
| 6 | 0,872 | 1,635 | 3,070 | 5,348 | 8,558 | 12,592 | 16,812 |
| 7 | 1,239 | 2,167 | 3,822 | 6,346 | 9,803 | 14,067 | 18,475 |
| 8 | 1,646 | 2,733 | 4,594 | 7,344 | 11,030 | 15,507 | 20,090 |
| 9 | 2,088 | 3,325 | 5,380 | 8,343 | 12,242 | 16,919 | 21,666 |
| 10 | 2,558 | 3,940 | 6,179 | 9,342 | 13,442 | 18,307 | 23,209 |

77-masala*. G‘o‘za o‘simgida tolaning qo‘ng‘ir rangda bo‘lishi oq rangi ustidan to‘liqsiz dominantlik qiladi. Qo‘ng‘ir tolali g‘o‘za o‘simgilari oq tolali o‘simgililar bilan chatishtirilganda, F₁ da olingan o‘simgilarning hammasi novvot rang tolali bo‘lgan. F₁ o‘simgilari o‘zaro chatishtirilib, ikkinchi avlodda (F₂) 246 ta qo‘ng‘ir tolali, 468 ta novvot rang tolali va 232 ta oq tolali o‘simgilalar olingan. CHatishtirish uchun olingan o‘simgilarning genotipini, χ^2 (xi-kvadrat) ni aniqlang.

Masaslaning echilishi:

| | |
|------------------|-----------------------------------|
| Belgi | Gen |
| Qo‘ng‘ir tola | Fr ^{Br} |
| Oq tola | Fr ^{br} |
| Novvot rang tola | Fr ^{Br} Fr ^{br} |

F₂ da 1 : 2 : 1 nisbatda fenotip bo‘yicha ajralish ketishi o‘rganilayotgan belgining monofaktoral belgi ekanligidan, shuningdek, to‘liqsiz dominantlik qilishidan darak beradi. SHularga asoslangan holda boshlang‘ich g‘o‘za o‘simgilalarining genotipini belgilaymiz:

| | |
|--|--|
| qo‘ng‘ir tolali | oq tolali |
| P ♀ Fr ^{Br} Fr ^{Br} | X ♂ Fr ^{br} Fr ^{br} |
| g Fr ^{Br} | Fr ^{br} |
| F ₁ Fr ^{Br} Fr ^{br} | - novvot rang tolali |
| novvot rang tolali | novvot rang tolali |
| P ♀ Fr ^{Br} Fr ^{br} | X ♂ Fr ^{Br} Fr ^{br} |
| g Fr ^{Br} , Fr ^{br} | Fr ^{Br} , Fr ^{br} |
| F ₂ Fr ^{Br} Fr ^{Br} | - 1 qo‘ng‘ir tolali |
| | Fr ^{Br} Fr ^{br} - 2 novvot rang tolali |

Fr^{br} Fr^{br} - 1 oq tolali

Masalaning ikkinchi shartiga ko'ra, olingan amaliy sonlarning nazariy kutilgan sonlarga qanchalik mos kelishini aniqlash uchun χ^2 usulidan foydalanamiz. Buning uchun avvalo olingan amaliy sonlar asosida ajralish ketishda hosil bo'ladigan fenotipik sinflar bo'yicha jadval tuzamiz. So'ngra material hajmini tashkil etuvchi barcha sinflar sonlari ko'rsatkichining yig'indisidan ajralishning ehtimollik formulasiga muvofiq (1 : 2 : 1) har bir sinfning nazariy jihatdan kutilgan soni (q) hisoblab chiqiladi. So'ngra har bir sinf uchun olingan amaliy sonlarning nazariy kutilayotgan sonlardan farqi (d) topiladi. Har bir sinfning farqini ko'rsatuvchi sonlar kvadratga ko'tarilib, har bir sinf uchun nazariy kutilayotgan songa bo'linadi - d^2/q .

Har bir bo'linmada olingan qiymatlar yig'indisi topilib, χ^2 qiymati aniqlanadi. Buni quyidagi jadval ko'rinishida ifodalash mumkin:

| Material | Material hajmi | | |
|--|-----------------|-------------|---------|
| | 946 ta o'simlik | | |
| | qo'ng'ir rang | novvot rang | oq rang |
| Faktik olingan son | 246 | 468 | 232 |
| Nazariy kutilgan son (q) 1 : 2 : 1 nisbatda | 236,5 | 473 | 236,5 |
| Farq (d) | + 9,5 | - 5 | - 4,5 |
| d^2 | 90,25 | 25 | 20,25 |
| d^2 / q | 0,3816 | 0,0528 | 0,0856 |
| $\chi^2 = \Sigma \frac{d^2}{q}$ | 0,5200 | | |

Endi aniqlangan χ^2 ning qiymati ehtimollik nuqtai nazaridan baholanadi. Buning uchun maxsus Fisher jadvalidan foydalaniladi. Bunda χ^2 ning qiymati bo'yicha olingan amaliy sonning nazariy kutilgan songa mosligining ehtimolligini (P) aniqlash uchun avvalo erkinlik darajasi topiladi. Erkinlik darajasi $n - 1$ ga teng. Bizning misolimizda bu son 2 ga (3 - 1) teng. χ^2 ning qiymatiga yaqin sonni Fisher jadvalining 2-qatoridan topiladi. Jadval ko'rsatkichiga ko'ra, P ning qiymati 0,80-0,50 orasida yotadi. Bu olingan amaliy sonlarning monoduragay chatishtirishda F_2 da kutilgan nazariy sonlarga mos ekanligini ko'rsatadi.

78-masala*. Gultojibarglari to'q sariq rangli g'o'za o'simliklari gultojibarglari och sariq rangda bo'lган o'simliklar bilan chatishtirilganda, F_1 da olingan o'simliklar gultojibargi to'q sariq rangda bo'ladi. SHunday duragay o'simliklar chatishtirilganda, keyingi avlodda olingan o'simliklarning 403 tasi to'q sariq gultojibargli, 129 tasi esa och sariq gultojibargli bo'lgan. Ota-onada o'simliklarning genotipini va F_2 dagi ajralishning χ^2 qiymatini aniqlang.

Masalaning echilishi:

Masala shartiga ko'ra, F_1 da faqat to'q sariq gultojibargli o'simliklarning rivojlanishi Mendelning birinchi qonuniga ko'ra chatishtirish uchun olingan o'simliklarning genotip

bo'yicha gomozigotali bo'lganidan dalolat beradi. To'q sariq gultojibargli o'simliklarning genotipi Y_1Y_1 va och sariq gultojibargli o'simliklarning genotipi - y_1y_1 , F_1 o'simliklariniki esa - Y_1y_1 bo'ladi. F_2 da olingan to'q sariq gultojibargli va och sariq gultojibargli duragay o'simliklarning nisbati 3 : 1 ga yaqin bo'lgani uchun o'rganilayotgan belgi bo'yicha ikkinchi avlod o'simliklarining to'q sariq gultojibargli o'simliklari Y_1Y_1 yoki Y_1y_1 genotipga, och sariq gultojibargli o'simliklari y_1y_1 genotipga ega bo'ladi. SHu xulosalarga asoslanib, o'rganilayotgan belgining irsiylanishini quyidagicha ifodalash mumkin:

| | | | |
|--------------|-----------------------------|------------------|-----------------|
| | to'q sariq gulli | | och sariq gulli |
| P ♀ Y_1Y_1 | X | ♂ y_1y_1 | |
| g Y_1 | | y_1 | |
| F_1 | Y_1y_1 - to'q sariq gulli | | |
| | to'q sariq gulli | to'q sariq gulli | |
| P ♀ Y_1y_1 | X | ♂ Y_1y_1 | |
| g Y_1, y_1 | | Y_1, y_1 | |
| F_2 | Y_1Y_1 - to'q sariq gulli | | |
| | Y_1y_1 - to'q sariq gulli | | |
| | Y_1y_1 - to'q sariq gulli | | |
| | y_1y_1 - och sariq gulli | | |

Endi χ^2 ning qiymatini aniqlaymiz.

| Material | Material hajmi | |
|--|-----------------|-----------|
| | 532 ta o'simlik | |
| | to'q sariq | och sariq |
| Faktik olingan son | 403 | 129 |
| Nazariy kutilgan son (q) 3 : 1 nisbatda | 399 | 133 |
| Farq (d) | + 4 | - 4 |
| d^2 | 16 | 16 |
| d^2 / q | 0,0401 | 0,1203 |
| $\chi^2 = \sum \frac{d^2}{q}$ | 0,1604 | |

$$P = 0,80 - 0,50.$$

79-masala*. Gultojibarglari to'q sariq, changlari och sariq bo'lgan g'o'za o'simliklari gultojibarglari och sariq va changlari to'q sariq bo'lgan o'simliklar bilan chatishtirilganda, F_1 da olingan o'simliklarning gultojibargi to'q sariq va changlari ham to'q sariq bo'lgan. F_2 da olingan o'simliklarning 329 tasida gultojibarglari to'q sariq, changlari ham to'q sariq; 86 tasida gultojibarglari to'q sariq, changlari och sariq; 97 tasida gultojibarglari och sariq, changlari to'q sariq; 36 tasida gultojibarglari va changlari och sariq bo'lgan. Ajralishning xarakterini va χ^2 ni aniqlang.

Masalaning echilishi:

Belgi

Gen

Gultojibarglari to‘q sariq Y_1
 Gultojibarglari och sariq y_1
 CHanglari to‘q sariq P_1
 CHanglari och sariq p_1
 Olingan birinchi avlod duragaylarining bir xilligi, chatishtirish uchun olingan ota-onal o‘simliklarining gomozigotaliligidan darak beradi.

| | | |
|----------------|--|---|
| | gultojibarglari to‘q sariq, changlari och sariq | $gultojibarglari$ och sariq, changlari to‘q sariq |
| P ♀ | $Y_1 Y_1 p_1 p_1$ | $\circlearrowleft y_1 y_1 P_1 P_1$ |
| G | $Y_1 p_1$ | $y_1 P_1$ |
| F ₁ | $Y_1 y_1 P_1 p_1$ - gultojibarglari to‘q sariq, changlari to‘q sariq | |

| | | |
|-----|--|--|
| | gultojibarglari to‘q sariq, changlari to‘q sariq | $gultojibarglari$ to‘q sariq, changlari to‘q sariq |
| P ♀ | $Y_1 y_1 P_1 p_1$ | $\circlearrowleft Y_1 y_1 P_1 p_1$ |
| g | $Y_1 P_1, Y_1 p_1, y_1 P_1, y_1 p_1$ | $Y_1 P_1, Y_1 p_1, y_1 P_1, y_1 p_1$ |

F₂ 1. $Y_1 Y_1 P_1 P_1 = 1$
 2. $Y_1 Y_1 P_1 p_1 = 2$
 3. $Y_1 y_1 P_1 P_1 = 2$
 4. $Y_1 y_1 P_1 p_1 = 4$
 5. $Y_1 Y_1 p_1 p_1 = 1$
 6. $Y_1 y_1 p_1 p_1 = 2$
 7. $y_1 y_1 P_1 P_1 = 1$
 8. $y_1 y_1 P_1 p_1 = 2$
 9. $y_1 y_1 p_1 p_1 = 1$

$\left. \begin{array}{l} 9 \\ 3 \\ 3 \\ 1 \end{array} \right\}$ $Y_1 P_1$ - gultojibarg to‘q sariq, chang to‘q sariq
 $\left. \begin{array}{l} 3 \\ 3 \end{array} \right\}$ $Y_1 pp$ - gultojibarg to‘q sariq, chang och sariq
 $\left. \begin{array}{l} 3 \\ 3 \end{array} \right\}$ $y_1 y_1 P_1$ - gultojibarg och sariq, chang to‘q sariq
 $\left. \begin{array}{l} 1 \end{array} \right\}$ $y_1 y_1 p_1 p_1$ - gultojibarg och sariq, chang och sariq

F₂ da to‘rtta fenotipik sinflar kuzatilib, ularning nisbati 9 : 3 : 3 : 1.

Endi χ^2 ning qiymatini aniqlaymiz.

| Material | Material hajmi | | | |
|--------------------|---|--|--|---|
| | 548 ta o‘simlik | | | |
| | to‘q sariq gultojibarg, to‘q sariq chang | och sariq gultojibarg, to‘q sariq chang | to‘q sariq gultojibarg, och sariq chang | och sariq gultojibarg, och sariq chang |
| Faktik olingan son | 329 | 97 | 86 | 36 |
| Nazariy | | | | |

| | | | | |
|--|----------|---------|----------|--------|
| kutilgan son (q) 9 : 3 : 3 : 1 nisbatda | 308,5 | 102,75 | 102,75 | 34,25 |
| Farq (d) | + 20,75 | - 5,75 | - 16,75 | + 1,75 |
| d^2 | 430,5625 | 33,0625 | 280,5625 | 3,0625 |
| d^2 / q | 1,3967 | 0,3217 | 2,7305 | 0,0894 |
| $\chi^2 = \Sigma \frac{d^2}{q}$ | | 4,5383 | | |

$$P = 0,50 - 0,20$$

P ning qiymati olingan faktik sonlarning nazariy kutilgan sonlarga mos kelishini ko'rsatadi.

105-masala*. YOng'oqsimon tojli tovuqlar gulsimon tojli xo'rozlar bilan chatishtirilib, keyingi avlodda 4 ta bargsimon tojli, 5 ta no'xatsimon tojli, 13 ta gulsimon tojli va 12 ta yong'oqsimon tojli individlar olindi. Boshlang'ich ota-onalarni parrandalar va avlodlarning genotipini aniqlang. Olingan natijalarni χ^2 metodi yordamida tekshiring.

Masalaning echilishi:

Keyingi avlodda har ikki gen bo'yicha retsessiv gomozigotali (aabb) parrandaning bo'lishi boshlang'ich tovuq va xo'rozlarining genotiplarida bu genlarning retsessiv allellari ishtiroy etishidan darak beradi.

| | | |
|--|---|--------------|
| yong'oqsimon toj | | gulsimon toj |
| P ♀ AaBb | X | ♂ Aabb |
| g AB, Ab, aB, ab | | Ab, ab |
| F ₁ AABb - yong'oqsimon toj | | |
| Aabb - gulsimon toj | | |
| AaBb - yong'oqsimon toj | | |
| Aabb - gulsimon toj | | |
| AaBb - yong'oqsimon toj | | |
| Aabb - gulsimon toj | | |
| aaBb - no'xatsimon toj | | |
| aabb - bargsimon toj | | |

yong'oqsimon tojli parrandalar - 3/8 qism

gulsimon tojli parrandalar - 3/8 qism

no'xatsimon tojli parrandalar - 1/8 qism

bargsimon tojli parrandalar - 1/8 qism

Olingan natijalarni χ^2 (xi-kvadrat) metodi yordami bilan tekshiramiz:

| Material | n | YOng'oqsimon Toj | Gulsimon Toj | No'xatsimon toj | Bargsimon toj |
|----------|---|------------------|--------------|-----------------|---------------|
| | | | | | |

| | | | | | |
|---|----|--------|--------|--------|--------|
| Olingan faktik Son | 34 | 12 | 13 | 5 | 4 |
| Nazariy kutilgan son (3:3:1:1) nisbatda | 34 | 12,75 | 12,75 | 4,25 | 4,25 |
| Farq (d) | 0 | - 0,75 | + 0,25 | + 0,75 | - 0,25 |
| d^2 | | 0,5625 | 0,0625 | 0,5625 | 0,0625 |
| d^2 / q | | 0,044 | 0,004 | 0,132 | 0,014 |
| $\Sigma \chi^2 = d^2/q$ | | | 0,194 | | |

$$P = 0,99 - 0,95$$

P ning qiymati 3:3:1:1 nisbatda olingan faktik sonlarning nazariy kutilgan sonlarga mos kelishini ko'rsatadi.